


## II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yil yanvar-mart oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4 429,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 104,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining – 48,7 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 0,3 % ni) hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining –6,8 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 83,2 % ni) o'sishi kuzatildi. Shuningdek, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 6,2 foizga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 15,7 % ni) , suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish sanoatining – 8,8 % ga (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 0,8 % ni) kamayishi kuzatildi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan % da)



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Ishlab chiqaradigan sanoat



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

**\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Tog' -kon sanoati va ochiq konlarni ishlashi korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 13,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqariladigan sanoat (qayta ishlash sanoati)

2023- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 3 685,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 83,2 % ni tashkil etdi.

### 2023- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Mahsulot nomi	2023- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi, (+:-)
Paxta tolasi, ming tonna	9,0	11,3	-2,3
Aroq - ming litr 100 % spirt	0	0	0
Konyak spirti - ming litr 100 % spirt	360,4	0,0	360,4
Vino, ming litr	0	0	0
Un, ming tonna	18,2	30,4	-12,2
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	1,7	5,1	-3,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan  
sanoat mahsuloti turlari  
(yirik korxonalar bo'yicha)

Mahsulot nomi	O'lchov birligi	2023- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
Yumshoq bug'doy va spelta uni	t	18 176,5	59,7
Kunjara va boshqa qattiq chiqindilar	t	8 694,0	50,7
Tozalangan o'simlik yog'i	t	1 675,0	33,2
Paxta tolasi	t	9 014,0	79,5
Paxta chigiti	t	16 294,8	83,7
Paxta linti	t	678,6	68,3
Xom ipak (pishitilmagan)	t	-	-
Paxtadan yigirilgan ip ishlab chiqarish	t	11 270,2	86,5
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan boshqa trikotaj polotnolar	t	229,2	129,1
Erkaklar yoki o'g'il bolalar uchun ishchi va kasbiy komplektlar va kostyumlar, kurtkalar va pidjaklar	t	-	-
Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar	ming dona	225,2	107,0
Ichdan kiyiladigan trikotaj kiyimlar	ming dona	8 567,5	128,1
Elektr energiyasi	mln. kVt/s	1 726,3	111,8
Issiqlik energiyasi	ming gkal	22,7	93,4
Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar	ming so'm	22 262 202,0	101,8
Oqava suvlarning shlami	ming so'm	2 179 400,0	107,8
Shahar xo'jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar	ming so'm	4 861 827,2	89,4


2023- yil yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Faoliyat turlari	mlrd. so'm	ulushi, % da
<b>Ishlab chiqaradigan sanoat</b>	<b>3 685,7</b>	<b>100,0</b>
oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	970,9	26,3
ichimliklar ishlab chiqarish	156,0	4,2
tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0
to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	1 155,7	31,4
kiyim ishlab chiqarish	426,0	11,6
teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	56,7	1,5
yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	12,3	0,3
qog'oz va qog'oz mahsulotlari ishlab chiqarish	33,0	0,9
yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	1,5	0,0
koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	3,9	0,1
kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	94,7	2,6
asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	60,0	1,6
rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	72,3	2,0
boshqa nometal mineral mahsulotlari ishlab chiqarish	205,7	5,6
metallurgiya sanoati	18,2	0,5
mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	117,4	3,2
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	1,1	0,0
elektr uskunalari ishlab chiqarish	131,1	3,6
boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	20,7	0,6
avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	6,8	0,2
boshqa transport uchkunlari ishlab chiqarish	0,0	0,0
mebel ishlab chiqarish	52,3	1,4
boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	87,0	2,4
mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	2,4	0,1

### Ishlab chiqaradigan sanoat texnologik tarkibi

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,7 % ni (2022- yil yanvar-mart oylarida – 1,5 % ni), oʻrta-yuqori texnologiyalini ulushi 6,9 % ni (7,5 %), oʻrta-quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi - 11,4 % ni (9,9 %), quyi texnologiyali ishlab chiqarishning ulushi esa 80,0 % ni (81,1 %) tashkil etdi.

#### 2023- yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi boʻyicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da



### Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 695,9 mlrd. soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat hajmining 15,7 % ni) tashkil etdi.

2023- yil yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmogʻida elektr energiyasini ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash bugʻ bilan taʼminlash tizimlari va xavoni konditsiyalash oʻtgan- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,2 foizga kamayganligi kuzatildi.

#### Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish (2023- yil yanvar-mart)

	2023- yil	2022- yil	2022- yilga nisbatan, % da
Elektroyenergiya - mln. kVt/s	1 726,3	1 544,6	111,8
Issiqlik energiyasi – ming Gkal	22,7	24,3	93,4

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,  
chiqindilarni utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 34,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.

**Tuman(shahar)larning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi**


Tuman (shahar)larning sanoat salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan izchil choralar natijasida Mingbuloq tumani (2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 115,4 % ga), Chortoq tumani (113,6 % ga), Norin tumani (113,5 % ga) hamda Chust tumani (108,7 % ga) sezilarli darajada ishlab chiqarish fizik hajmi indeksining o'sishi ta'minlandi.

	Sanoat mahsulotlari (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>4 429,2</b>	<b>100,0</b>	<b>104,3</b>
Namangan sh.	1 636,5	37,0	104,0
Mingbuloq	250,3	5,6	115,4
Kosonsoy	222,1	5,0	105,1
Namangan t.	288,8	6,5	100,6
Norin	39,3	0,9	113,5
Pop	111,2	2,5	101,8
To'raqo'rg'on	895,2	20,2	103,3
Uychi	246,9	5,6	102,8
Uchqo'rg'on	194,0	4,4	80,8
Chortoq	112,4	2,5	113,6
Chust	349,6	7,9	108,7
Yangiqo'rg'on	82,9	1,9	108,4

**Tuman(shahar)lar bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish  
hajmi, indeksning o'sish sur'atlari**

(2023- yil yanvar-mart)

(o'tgan- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati % da)




Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 37,0 % ulushini), To'raqo'rg'on (20,2 %), Chust (7,9 %), Namangan tumani (6,5 %), Mingbuloq tumani (5,6 %), Uychi (5,6 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning hududlarga nisbatan ko'rilganda, To'raqo'rg'on tumanida 3 728,0 ming so'm, Namangan shahrida 2 406,0 ming so'm, Mingbuloq tumanida 1 862,4 ming so'm, Namangan tumani 1 530,4 ming so'm, Chust tumanida 1 247,0 ming so'mni tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan yuqori ko'rsatkichni tashkil etmoqda.

Tuman (shahar)lar kesimida aholi jon boshiga o'rtacha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Mingbuloq tumanida (2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan 112,9 %), Norin (111,3 %), Chortoq (111,3 %), Chust (106,6 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, Uchqo'rg'on tumanida (79,2 %) va Namangan tumani (98,2 %) o'sishning past sur'atlari kuzatildi.

**Tuman(shahar)larning viloyatdagi jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**  
(2023- yil yanvar-mart)




**Tuman(shahar)lar bo'yicha aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda**  
(2023- yil yanvar-mart)




**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 776,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 17,5 % ni tashkil etdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.**



**Hududlar boʻyicha chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarini sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da (2023- yil yanvar-mart)**



**2023- yil yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat  
mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o‘shish sur‘atlari**


	Aholi jon boshiga (ming so‘mda)	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
<b>Viloyat bo‘yicha</b>	<b>1 473,9</b>	<b>102,0</b>
Namangan sh.	2 406,0	101,3
Mingbuloq	1 862,4	112,9
Kosonsoy	994,8	102,8
Namangan t.	1 530,4	98,2
Norin	227,3	111,3
Pop	479,9	99,9
To‘raqo‘rg‘on	3 728,0	100,8
Uychi	1 084,2	100,5
Uchqo‘rg‘on	1 065,5	79,2
Chortoq	533,3	111,3
Chust	1 247,0	106,6
Yangiqo‘rg‘on	356,2	105,8

**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 2 041,4 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 46,1 % ni tashkil etdi.

Tuman (shahar) lar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo‘rg‘on, Chortoq (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Uychi (76,9 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush To‘raqo‘rg‘on (11,0 %), Chust (22,7 %) va Uchqo‘rg‘on (22,9 %) tumanlarida kuzatildi.

**Tuman va shaharlarning kichik biznesdagi ulushi, % da**  
(2023- yil yanvar-mart)



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi**

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dasturga kiritilgan 107 ta loyiha bo'yicha 313,8 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari**  
(2023- yil yanvar-mart)


Ko'rsatkichlar	2022- yil yanvar-mart	2023- yil yanvar-mart
Loyihalar soni, birlik	163	107
Korxonalar soni, birlik	77	82
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	209,6	313,8
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln AQSH doll.	2,3	2,7
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	676	364

### Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 5 789 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2 137 tasi Namangan shahriga, 437 tasi Kosonsoy, 430 tasi Chust, 418 tasi Uychi, 414 tasi Namangan, 380 tasi To'raqo'rg'on, 356 tasi Uchqo'rg'on, 275 tasi Pop, 274 tasi Yangiqo'rg'on, 271 tasi Norin, 230 tasi Chortoq hamda 167 tasi Mingbuloq tumanlariga to'g'ri keladi.

2023- yil yanvar-mart oylarida viloyatda 246 ta sanoat sohasida korxonalar yangi tashkil etilgan bo'lib, ulardan 60,2 % Namangan shahri, Uchqo'rg'on, To'raqo'rg'on, Mingbuloq va Pop tumanlariga to'g'ri keldi.

### Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda (2023- yil 1- aprel holatiga)




### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini rag'batlantirish va turlarini kengaytirish, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan (117,9 %) oshishiga ta'sir ko'rsatdi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi esa 43,4 % ni tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha 2023- yil yanvar-mart oylarida iste'mol  
tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati**


	Halq iste'mol mollari (mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>1 924,4</b>	<b>100,0</b>	<b>117,9</b>
Namangan sh.	915,8	47,6	129,9
Mingbuloq	50,5	2,6	92,9
Kosonsoy	160,7	8,3	153,9
Namangan t.	93,2	4,8	103,4
Norin	24,7	1,3	103,1
Pop	66,9	3,5	101,6
To'raqo'rg'on	172,5	9,0	106,9
Uychi	69,9	3,6	110,2
Uchqo'rg'on	68,9	3,6	57,1
Chortoq	105,1	5,5	149,3
Chust	153,6	8,0	117,2
Yangiqo'rg'on	42,6	2,2	101,7

**Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**  
(2023- yil yanvar-mart)




**Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi**  
(jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, % da)

2022- yil yanvar-mart



2023- yil yanvar-mart



 Oziq-ovqat tovarlari

 Nooziq-ovqat tovarlari

### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 49,2 % ni, shuningdek Chortoq tumani 11,6 % ni, Uchqo'rg'on tumani esa 6,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati eng yuqori ko'rsatkich Chortoq (169,5 %), Pop (116,4 %) tumanlari va Namangan shahrida (114,0 %) qayd etildi.

### Hududlar bo'yicha 2023- yil yanvar-mart oylarida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati

	(mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>752,8</b>	<b>100,0</b>	<b>103,6</b>
Namangan sh.	370,6	49,2	114,0
Mingbuloq	17,7	2,4	86,9
Kosonsoy	16,8	2,2	107,9
Namangan t.	48,1	6,4	73,4
Norin	12,9	1,7	98,6
Pop	49,5	6,6	116,3
To'raqo'rg'on	15,6	2,1	98,2
Uychi	38,8	5,2	107,7
Uchqo'rg'on	51,5	6,8	53,2
Chortoq	87,6	11,6	169,5
Chust	24,2	3,2	102,7
Yangiqo'rg'on	19,5	2,6	95,3

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 46,5 % ni, shuningdek To'raqo'rg'on tumani 13,4 % ni, Kosonsoy tumani 12,3 % ni, Chust tumani esa 11,0 % ni tashkil etdi.

Shuningdek nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'ati eng yuqori ko'rsatkich Namangan (183,2 %), Kosonsoy (161,9 %), Chust (120,4 %) tumanlarida va Namangan shahrida (143,5 %) qayd etildi.

### Hududlar bo'yicha 2023- yil yanvar-mart oylarida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati

	(mlrd. so'm)	Jamiga nisbatan ulushi, % da	2022- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da
<b>Viloyat jami</b>	<b>1 171,6</b>	<b>100,0</b>	<b>129,3</b>
Namangan sh.	545,2	46,5	143,5
Mingbuloq	32,8	2,8	96,6
Kosonsoy	143,9	12,3	161,9
Namangan t.	45,1	3,8	183,2
Norin	11,8	1,0	108,4
Pop	17,4	1,5	74,8
To'raqo'rg'on	156,9	13,4	107,8
Uychi	31,1	2,7	85,8
Uchqo'rg'on	17,4	1,5	72,5
Chortoq	17,5	1,5	93,5
Chust	129,4	11,0	120,4
Yangiqo'rg'on	23,1	2,0	107,8